

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERAKTIV METODLARNING QO'LLANILISHI

Abduraximova Mardona Axrorjon qizi

“Ta’lim fakulteti” BT 1-24 talabasi,

Xalilova Nilufar Bahromovna

Qo‘qon universiteti katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20604465>

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda interaktiv metodlarning qo‘llanilishi, ularning ta‘lim jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi yoritiladi. Interaktiv metodlar o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ilmiy savodxonlikni oshirish, muloqot k nikmalarini shakllantirish hamda bilimlarni mustahkamlash muhim vosita hisoblanadi. Annotatsiyada turli hil interaktiv metodlarning mazmuni, qo‘llash usullari va natijalari haqida qisqacha malumot berildi. SHuningdek, boshlang‘ich ta‘limda interaktiv yondashuv orqali o‘quvchilarning qiziqishi oshishi, dars samaradorligi ortishi va ta‘lim sifati yaxshilanishi asoslanib berildi.

Kalit so‘zlar: interaktiv, metod, interfaol, reglament, kommunikativ, sintez kaze-study, material, strategiya, mezon, norasmiy.

Zamonaviy sharoitda ta‘lim samaradorligini oshirishning eng ma‘qul yo‘li-bu dars jarayonining turli interaktiv metodlar yordamida tashkil etish. Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interaktiv metodlarning o‘rni beqiyos. Interaktiv so‘zi “inglizcha” so‘zdan olingan bo‘lib “inter” - o‘zaro birgalikda, “act” – harakat ya‘ni o‘zaro birgalikdagi harakat degan ma‘noni bildirib, hamkorlikda o‘qitishga asoslanadi. Interaktiv me‘tod – ta‘lim jarayoni o‘quvchilar hamda o‘qituvchilar o‘rtasidagi faoliyatni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirishni faollashtirish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga hizmat qiladi. Interaktiv me‘todlar asosidagi faoliyatni tashkil etishda aniq va rejalashtirilgan maqsadlar o‘z aksini topadi. Interaktiv me‘todlar bir vaqtda bir necha masalalarni hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi – o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nik- ma va malakalarni rivojlantiradi, o‘quvchilar orasida emotsiyalar va aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni savodxonligini oshirishga yordam beradi, ularni jamoat tartibida ishlashga, o‘z tengdoshlarining fikrlarini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarining bajaralishini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, dars jarayonida interfaol me‘todlarni qo‘llash o‘quvchilarning dars davomida zerikib qolmasligini ta‘minlaydi va ularning asabiy zo‘riqishlarini bartaraf qiladi. Ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi. Eng asosiysi o‘quvchilar o‘zlarinig intellektual darajalarini anglab yetadilar. Boshlang‘ich sinf oquvchisining jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun harakatli va interaktiv metodlar asoslangan dars mashqlarini to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazish eng muhim masaladir.

Interaktiv me‘todlar ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim jarayonining markazda ta‘lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi.

Interfaol metodlar o‘qituvchi va o‘quvchining faol munosabatlaridan biridir. Interfaol metodlarning maqsadi o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro hamfikrligini ta‘minlash. Ushbu metodlar orqali o‘quvchi qabul qilishni rivojlantirish, o‘quvchilarni bilim olishini ta‘minlash kabilarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shunday qilib, hozirgi kunda interaktiv metodlarning quyidagi turlari mavjud: Aqliy hujum, zamoaviy o‘qitish usuli, kichik guruhlarda ishlash, o‘yinli o‘qitish. Muloqot metodi, tarmoqlar metodi, boshqaruv metodi va boshqalar. Bu metodlardan

bir nechtasiga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Bugungi kunda miyya faoliyatining ish foizini oshirishga qaratilgan turli xil metodlar o'ylab topilmoqda. Eng avvalo, aqliy hujum metodiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Sababi bu metod eng ommalashgan metodlardan biridir. Bizning kelajagimiz bo'lgan yosh avlod asosiy ya'ni fundamental bilimni shubhasiz, boshlang'ich sinfdan olishni boshlaydi. Bizning maqsadimiz bugungi kun pedagoglari o'z faoliyatida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida interaktiv metodlardan keng foydalana olishidir. Ammo bugungi kunda interaktiv metodlardan foydalanib ham o'qituvchi ham o'quvchi birdek faol harakat qilayotganligini barcha umumta'lim maktablarida kuzatish qiyin masalalardan biridir. Shuning uchun bu mavzuni bugungi kunning dolzarb masalasiga aylantirdik. Interaktiv dars metodlari, boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini yanada qiziquvchan va samarali qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu metodlar o'quvchilarning masofaviy ta'limni, faol qatnashishini, fikr bildirishini va mustaqil o'rganishini rag'batlantirishga yordam beradi. Masalan, o'yinlar, animatsiyalar, elektron darsliklar, interaktiv ko'nikmalar va jamoada ishlash orqali o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi va ularga motivatsiya beradi. Bunday interaktiv dars usullari o'quvchilarning o'zlarini o'rganish va tushunishini rivojlan- tiradi.

To'g'ri tanlangan va tashkil etilgan interaktiv metodlarga ta'lim-tarbiyaviy ishlarida samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Buning uchun interaktiv metodlarning mezonlarini anig'lash zarur. Interaktiv metodlarning asosiy mezonlari quyidagilar: norasmiy bahs-munozaralar; o'quy materiallarini erkin bayon etish va ifodalash; o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyat yaratish; kichik guruh, katta guruh va jamoa bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish; yozma ishlar bajarish; nazariy bilim berishdan amaliyotning ko'pligi va boshqalar. Darslardagi interaktiv faoliyat 5 ta asosiy elementlardan tashkil topadi. Ijodiy-samimiy o'zaro bog'liqlik. Guruh ichida shaxsiy mas'uliyatlilik. Bir-biriga ta' sir etuvchi o' zaro faoliyat. Hamkorlikda ishlash malakasi. Guruhda ishlash. Interaktiv metod o'quvchilarda ta'limning mazmunini mustaqil o'zlashtirib olish va o'z fikr, xulosalarini shakllantirish uchun motiv hosil qiladi va quyidagi ko'nikmalarni shakllantirib, rivojlantirib boradi, o'z oldiga magsad qo'yish, erkin va mustaqil fikrlash, o'z fikr-mulohazalarini bayon etish va uning to'g'riligini boshqalarga isbotlash, yakka va juftlikda ishlash, hamkorlikda ishlash, ijodiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chigarish, o'z iqtidorini namoyish qilish, berilgan imkoniyatlardan eng ma'qulini tanlash, bahs-munozaraga kirisha olish. Interfaol metodlardan foydalanilganda pedagog va o' quvchi munosabati asosi quyidagicha talqin etiladi. Boshqarish emas, birgalikda boshqarish. Majburlash emas, ishontirish. Buyurish emas, tashkil etish. Chegaralash emas, erkin tanlashga imkon berish. Demak interfaol usullarni qo'llash natijasida o quvchilar hozir javoblikka o'rganadi, ularning lug'at boyligi ko'payadi, ilmiy-nazariy bilimi yanada mustahkamlanadi va darsga qiziqishini orttiradi va intilishga olib keladi. Interaktiv metodlar o'quvchilarda doimiy faollikni ta' minlaydi. O'quvchilar dars davomida Bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo 'ladilar. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi. Oddiy mashq va topshiriqlardan shunisi bilan farqlanadiki, ularni bajarish jarayonida o'rganilgan material nafaqat mustahkamlanadi, balki yana yangilari ham olinadi. Shuningdek, bu mashq va topshiriqlar interaktiv yondashuvga mo'ljallangan bo'lib, zamonaviy pedagogikada ham uning boy zahirasi to'plangan, shulardan quyidagilarni ajratib olamiz: Ijodiy topshiriq. Kichik guruhlar bilan ishlash. Ta'limiy o'yinlar (rolli, maqsadli va bilim beruvchi o'yinlar). Jamiyatdagi zahiralardan foydalanish (mutaxassis taklif etish, ekskursiyalar). Ijtimoiy loyihalar va auditoriyadan tashqari beriladigan ta'lim metodlari

(ijtimoiy loyihalar, radio va gazetalar, filmlar, sahna asarlari, qo' shiq va ertaklar). Razminka. Yangi materialni o'rganish va mustahkamlash (interfaol ma' ruza, ko'rgazmali qurollar bilan ishlash, video va audio materiallar, "o'quvchi-o'qituvchi rovida", "har bir kishi har bir kishiga o'rgatadi"), mozayka (ajurali arra) savollardan foydalanish, buqrotli diolog). Murakkab va muzokara talab savol va muammolarni yechish ("fikir maktabi", "pozitsiyani egalla", "POPS" loyihalashtirilgan texnikalar, "bir o'zing, ikki kishi birgalikda", "pozitsiyani o'zgartir", "karrusel», "televizion tok shou uslubida munozara", debatlar, simpozium). Muammo-yechim ("yechimli daraxt", "aqliy xujum", "kazuuslar tahlili", "kelishuvlar va mediatsiya") va h.k.z. Ljodiy topshiriqlar deganda biz shunday topshiriqlarni tushunamizki, bunda ishtirokchilardan nafaqat oddiy axborotni qabul qilish, balki unga ijodiy yondoshish ham talab etiladi. Chunki, berilgan topshiriqlar katta yoki kichik hajmdagi organilmagan elementga qoidaga ko'ra bir necha yondashuvni talab etadi. Pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanganidek talabalarning bilish jarayonidagi faolligini oshiruvchi va ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi metod interfaol metod deb ataladi. O'qitishning interfaol metodi ikki ko'rinishda o'zini namoyon qiladi. Bunda odatdagi o' qituvchi monologini mumkun qadar kamaytirib, talabalarni mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi strategiyalardan foydalanish, o'qituvchining mashg'ulotdagi hukmronligidan voz kechib, uni talabalarning mustaqil o' zlashtirishlariga yordam va maslahat beruvchi, ularga mustaqil faoliyat uchun sharoit yaratuvchi maqsadga yo'llovchi shaxs bo'lishga erishishi nazarda tutiladi. Chunki ilmiy-tadqiqotlarda ta'kidlanganidek mustagil bilish faoliyati ijodiy tafakkurni rivojlantirishni asosi bo'lib hisoblanadi. O'quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda J.Stil, K.Meridis va Sh.Templarning fikrlashni rivojlantirish uchun katta xissa qo'shgan "o'qish, yozish va fikrlashni rivojlantirish uchun "Xalqaro dastur"ni ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. U jahondagi 30 ga yaqin mamlakatlar ta'lim tizimida yuqori samara bermoqda.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarini samarali o'qitish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni faol ishtirok etishga undash uchun interaktiv metodlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Interaktiv metodlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, ta'lim jarayonini jonli va qiziqarli qiladi. Interaktiv metodlar — bu o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradigan o'qitish usullaridir. An'anaviy darslardan farqli ravishda, bu metodlarda o'quvchi faqat tinglovchi bo'lib qolmaydi, balki fikr yuritadi, savol beradi, muhokama qiladi va mustaqil xulosa chiqaradi. Shu orqali ularning bilim olish darajasi sezilarli darajada oshadi. Boshlang'ich sinflarda interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning aqliy faolligini rivojlantiradi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi va jamoada ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Bundan tashqari, o'quvchilarning nutqi rivojlanadi, ular o'z fikrini erkin ifoda eta boshlaydi. Bu esa kelajakda ularning shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Amaliyotda keng qo'llaniladigan interaktiv metodlarga "aqliy hujum", "klaster", "rolli o'yinlar", "insert" va "baliq skeleti" metodlarini kiritish mumkin. Masalan, "aqliy hujum" metodida o'quvchilar berilgan savolga tezkor javob berib, o'z fikrlarini erkin bayon qiladi. "Klaster" metodi esa mavzuni tizimli ravishda tushunishga yordam beradi. "Rolli o'yinlar" orqali o'quvchilar turli vaziyatlarni sahnalashtirib, bilimlarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, interaktiv metodlarni qo'llashda o'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Dars jarayoni sodda, tushunarli va qiziqarli tarzda tashkil etilishi lozim. Har bir o'quvchini faol ishtirok etishga jalb qilish ham muhim omillardan biridir. Albatta,

interaktiv metodlarning o'ziga xos afzalliklari bilan birga ayrim kamchiliklari ham mavjud. Masalan, bu metodlar ko'proq vaqt talab qiladi va o'qituvchidan yuqori darajadagi tayyorgarlikni talab etadi.

XULOSA. Ushbu maqolada, interaktiv metodlar va ularning qo'llanishi, mazmun mohiyati ochib berilgan. Xulosa qilib aytganda interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarni muammolarni tahlil qilishga, savollar berish va yangi yechimlar izlashga ko'niktirib boradi. Bu o'quvchilarning muammolarga logika va analitik qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ularga o'zlarining o'rganish jarayonlarida o'quvchilar o'zlariga tegishli muammolarni tahlil qilish va yechishga intilishadi. Shunday qilib, ona tilini o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarning o'zlarining o'rganish jarayonlarida aktiv qatnashish, ko'nikmalarni rivojlantirish, fikr almashish va kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish, muammolarga yechim topish qobiliyatini rivojlantirish va o'quvchilarning o'zining o'rganish jarayonlarini o'zlashtirishiga imkon beradi. Bu natijalar o'quvchilarning ona tilini yaxshiroq o'rganishlari va o'zlarining bilimlarini oshirishlari uchun muhim rolo'ynaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G.N.Komiljonova Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv qo'llanma.Qo'qon 2025-B.90-91.
2. I.Sayidaxmedov N.S Pedagogik mahurat va pedagogik texnologiya.TO'zMU